

**Samarqand davlat universiteti
Filologiya fakulteti “ Istiqlol davri
adabiyoti va adabiyot nazariyasi”
kafedrasi Filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent Toshpo‘latov
Akram Haydarovich taqrizi ostida**

**Ko‘chimova Rahima Farxod qizi
Samarqand davlat universiteti
Filologiya fakulteti
filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
yo‘nalishi IV bosqich talabasi
kochimovarahima@gmail.com**

IQBOL MIRZO LIRIKASIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI

Annotasiya: Iqbol Mirzo zamonaviy o‘zbek she‘riyatida o‘z o‘rniga ega ijodkordir. Shoir lirikada turli xil mavzularda qalam tebratib kelmoqda. U vatan, oila, muhabbat, do‘stlik, tabiat, folklor, tarix va boshqa turfa xil ma‘nolardagi she‘rlari bilan she‘riyat ahlini o‘ziga maftun etyapti. Maqolada uning o‘ziga xos qalamlar bilan chizilgan go‘zal satrlarini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: Muhabbat, yor timsoli, oila, vatan, ijodkorlar yodi, tabiat, folklor.

THE VARIETY OF THEMES IN IQBAL MIRZA’S LYRICS

Abstract: Iqbal Mirza is a creator who has a place in modern Uzbek poetry. The poet has been swinging his pen on various topics in his lyrics. He fascinates poetry people with his poems about country, family, love, friendship, nature, folklore, history and other different meanings. In the article, we will analyze his beautiful lines drawn with unique pencils.

Key words: Love, symbol of country, family, homeland, memory of creators, nature, folklore.

I.Mirzo she‘rlarida bosh mavzulardan biri – Muhabbat va yor tasviridir. Muhabbat, yor timsoli hamma yozuvchi, shoirlarning ijodida uchraydi. Ijokorda yor tasviri ham o‘ziga xos tashbehlari bilan ajralib turadi:

Sochlaring fatila, to‘ptosh o‘ynarding,
Tirnog‘ingda shu‘la, manglayingda nur.
To‘ptoshlaring sohib ketsam, yig‘larding:
“Onamga aytaman, hali qarab tur!”¹ [1. 29-b.]

I.Mirzo o‘xshatishiga qarang, yorning sochini “ Fatila” – “ Arabcha – eshilgan paxta pilik; kalava; jamalak, gajak”ka ya‘ni jamalak bilan o‘rilgan sochga o‘xshatib, qizning sochi jamalak bilan o‘rilgan holda to‘ptosh - qiz bolalarning mayda toshlarni tashlab-ilib olib o‘ynaydigan o‘yini va shu toshlarning o‘zini o‘ynab o‘tirganini tasvirlab, kitobxonni qizning tashqi holati va mashg‘uloti haqida ma‘lumot berib, shu vaziyatga xayolan tushiradi. Tirnog‘idagi oqqa quyosh nurlari kelib yaltirashini shu‘laga, issiq havodan peshonasidagi terning yaltirashini nurga chiroyli qilib o‘xshatadi. Keyingi misralarida esa o‘yinqaroq yorning atayin qizbola yorini o‘ziga qartish uchun o‘ynayotgan toshlarini buzib ketishi, uni ataylab yig‘latib, onasiga aytib berishini nimtabassum bilan satriga muhrlaydi. Bu esa kundalik hayotimizda ko‘p uchraydigan yoshlikdagi sof muhabbatning eng kichik ko‘rinishi

¹ I. Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2018, 29-b.

ekanligini bilamiz. Iqbol Mirzo shu beg‘ubor yoshgina yorni va muhabbatni oddiygina so‘zlar bilan ifodalab, go‘zal san‘at asarini yaratdi. O‘xshatish sifatida olingan fatila, to‘ptosh, tirnoqdagi shu‘la, manglaydagi nur so‘zlar ham o‘ziga xoslikni ko‘rsatgan.

Shoir oila mavzusini ham chetda qoldirmagan. U ona, ota, aka-uka, opa-singillarga atab she‘rlar bitadi. Oilaning ahamiyati qancha ekanligini u hattoki “ Bonu” romanida ham berib o‘tadi: “ Bu yoqda onam va Zebo opam jonimga ora kiribz “ Bonu o‘qiydigan qiz, kelajakda olima bo‘ladi, bizdan ham bitta chiqsin-da”,- deb Dadajonim ko‘nglimni yumshatishdi. Asli dadam ham meni jondan ortiq yaxshi ko‘rar, ko‘nglimga qarar, o‘qishimga moyilligi bor edi-yu, Otalarga xos “qiz xavotiri” tufayli siyosat qilayotgandi”². Bundan ko‘rinadiki, ota-on, opa-aka, umuman, barcha oila a‘zolarining ham mehribon, ham qattiqqo‘l bo‘lsa-da lekin ular inoqligini, o‘z o‘rniga egaligini, qadr-qimmatini, oila atalmish dargohning qanchalik mustahkam poydevori borligini birgina Bonuga bo‘lgan munosabatlaridan bilsangiz bo‘ladi. Uning “ Sizni kuylayman” she‘riy to‘plamiga kiritilgan “Akalarimga”, “Dadam”, “Onajon”, “O‘g‘limga”, “ Singlimga” kabi she‘rlari aynan uning oila atalmish dargoh vakillari uchun chorlov, e‘zozlash, mehr, muhabbat va g‘urur singari tuyg‘ularni aks ettirgan misralar bitadi. “ Onajon”she‘ri misolida ko‘ramiz:

Goho sizning borligingiz unutdim,

Yo‘llaringa zorligingiz unutdim.

Umidlari kesilgan bu dunyoda

Yolg‘iz umidvorligingiz unutdim.

G‘animatim, omonatim – onajon.³ [1. 83-b.]

Bu she‘r marhum O‘zbekiston xalq artisti Shuhrat Qayumov nomi bilan barcha o‘zbek xalqiga tanishdir. O‘zbeklarning qon-qoniga singib ketgan bu misralarni Sh. Qayumov kuyga solib qo‘shiq qilib aytdi, bu esa barcha tinglovchilani o‘yga, onani qadrlashga undadi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Bu esa ijodkor I.Mirzoning she‘rlari kuyga solinishi ham osonligini, mosligining sababini Umarali Normatov shunday ko‘rsatib beradi: “Abdulla Qahhor aytmoqchi, ijodkor janrni tanlamaydi, balki janrning o‘zi ijodkorni topib oladi. Iqbol ijodiy taqdirida ham ayni shu hol yuz berdi, qadim qo‘shiq olami Iqbol siymosida yana bir o‘z odamini topdi...”⁴[4. 38]. Bu so‘zlar isbotini yuqoridagi adabiyotshunos va tanqidchi U. Normatovning fikrlari orqali bilib olishimiz mumkin.

Vatan- muqaddas dargoh. Uni madh etmoq har bir insonning burchidir:

Hech kimga hech qachon bo‘lmagay qaram,

Ona yurt qoshida tiz cho‘kkan o‘g‘lon.

Eng ulug‘ qasam bu- onaga qasam,

² И. Мирзо. Бону- Тошкент: Faktor books, 2022. 13-б.

³ I. Mirzo. Sizni kuylayman.- Toshkent: Sharq. 2007, 83-bet.

⁴ U. Normatov. Ijod sehri.- Toshkent. 2007, 38-b.

Eng buyuk qasam bu - yurtga, begumon!⁵ [5. 32-б.]

“Vatanga qasamyod ” haykali poyida” she’rida O‘zbekiston deya atalmish mamlakatning o‘z nomiga muvofiq o‘ziga xon, o‘ziga bek ekanligini madh etib, unga qasamyod qilinishini, qasamning har narsadan ustun bo‘lganlar uchun – Ona, Vatan uchun ichilishini eng yuqoriga ko‘tarib, ularning darajasini naqadar beqiyosligi ochiq oydin ko‘rsatilgan.

Ijodkor ijodkordan nimanidir o‘rganadi. Kitobxon esa boshqa bir kitobxon o‘rganadi. Shu sababli har xil fikrlar qalbimizda bong uradi. Kim chiroyli tahlil etsa o‘sha tahlilga tomon intilish vujudga keladi. Ijodkor esa qaysidir san’at ahlidan xatolarni to‘g‘rilashni yoki undan o‘zi uchun qo‘shimcha ilhomlanishni o‘rgatadi, o‘rganadi. Lirik mahorati bilan o‘zbek kitobxonini o‘ziga maftun etayotgan I.Mirzo o‘zi uchun eng yaqin deb hisoblaydigan, o‘rnak olsa arziydigan bir nechta qalam ahliga naziralar bitadi. Ular orasida “ Qo‘qon shamoli ” - A‘zam O‘ktamga, “ Muhammad Yusuf ”- Muhammad Yusufga, “ Akalarimga” - Shavkat Rahmon, Oxun, Muhammad Yusufga, “ Muqaddima” - Muqimiya, “ Farg‘onacha ” – Muhammad Sharifga, “ Diydor ” – Muallim O‘ljaboy Meliqo‘ziyevga, “ Azoblarim ” – Nabijon Boqiyga, “ Shavkat Rahmon” – Shavkat Rahmonga, “ Ko‘klam” – she’ri esa Salim Ashur kabi insonlarga bag‘ishlanganlari “ Sizni kuylayman ” she’riy to‘plamidan joy olgan. Masalan taniqli o‘zbek adibi Shavkat Rahmonni yod etish uchun atalgan she’rga nazar solsak:

Uchib-qo‘nib, uchib-qo‘nib shom- shaharlar

Nafis san’at sahnasida poyga ketdi.

Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,

Kapalaklar uchmaydigan joyga ketdi.⁶ [1. 247-b.]

O‘zbek adabiyoti shousida barchani o‘ziga rom etajak ijodiy ishlari bilan tanilgan Shavkat Rahmon vafotidan so‘ng uni yod etish maqsadida yozilgan she’rda badiiy adabiyotdagi o‘rnini ta’kidlaydi- Shoir. Bu uning ustozlariga nisbatan ehtiromi, cheksiz muhabbatning bir dalilidir. Bu bilan demoqchimizki, shoir o‘zi va vatani uchun jonkuyar holatda harakat qilgan har bir kimsani chetda qoldirmaslikka harakat qiladi.

Lirik mahorat sohibi qadim o‘tmish sanalmish folklor na‘munasi mavzusini ham chetlamagan. Butun turk elining faxrlari sanalmish Alpomish- u Go‘rog‘li, Barchinoy- u Boybo‘rilar, Shohimardon pirlarini nazmda yod etmay qo‘ymaydi Shoir. “Botirlar”, “Meros”, “Yurt qo‘shig‘i”, “ O‘zbek bilan turkmanning”, “Bog‘dod polvonlari” nomi bilan ataluvchi ijod mahsulida xalq og‘zaki ijodining javohirlarini tilga olib o‘tadi:

Rustam bahodirlar, To‘ra polvonlar,
O‘ktam bahodirlar, Jo‘ra polvonlar...
Ko‘zimga mo‘ltirar g‘o‘ra polvonlar,
Men esa ularga boqib vayronman.
... Erlar Shoymardonga chiqmay qo‘ydimi?

⁵ И. Мирзо. Айтгил, дўстим, нима қилдик Ватан учун?! – Тошкент: О‘zbekiston , 2017. 32-б.

⁶ I. Mirzo. Sizni kuylayman.- Toshkent: Sharq. 2007, 247-b.

Er gapini ayol uqmay qo‘ydimi?
Yo xotinlar o‘g‘il tug‘may qo‘ydimi?
Bag‘dod teragidek titragan jonman.⁷ [1. 313-b.]

O‘tmishda o‘tgan xalq og‘zaki ijodining zabardast polvonlari, Boybo‘ri va Boysarining farzand tilab Shohimardon pirining oldiga yo‘l olganligini dostonlarimizni bilgan, o‘qigan kitobxon uchun she‘r ma‘nosini anglash mushkulot emasdir.

Darhaqiqat, bizning yurtimiz mana shunday insonlar yurtidir. Uning ajdod-avlodi, moddiy - madaniy boyliklari bilan birgalikda tabiati ham o‘zgachadir. O‘zbek she‘riyatida Hamid Olimjon, Zulfiya, Oybek, Muhammad Yusuf, Rauf Parfi kabilar ijodida bu mavzu o‘zgacha o‘rniga ega. Lirik ijodkorimiz ham bu mavzuda bir qancha na‘munalari yozdi. Xususan, uning “ Xazonrezgi ”, “ Yaproqlar ”, “ Ko‘klam ”, “ Kuz ”, “ Kuzda ”, “ Bug‘doyso‘z ”, “ Gul ” kabi faqatgina bu she‘rlar shu nom bilan atalib, tabiat tasvirlarini ko‘rsatsa, boshqa nomlar bilan nomlanib, tabiat tasvirlarini ko‘rsatuvchi she‘rlari ham bisyordir. Uning “ Navro‘zguli” she‘ri g‘oyat go‘zal tashbehlariga bisyordir:

Navro‘zguli, boychechagim, bormisan,

Men se Boychechakning nga zor, sen ham menga zormisan?

Muz ichida asradim men ko‘nglimni,

Sen o‘zingni asrab, baxtiyormisan?

... Ninachining qanotidek barging bor,

Asal va sut bo‘yi kelar atring bor.⁸ [1. 49-b.]

Boychechak tasviridan metaforik birliklarni qo‘llash mahorati yuqoriliguni ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni Iqbol Mirzo yuqoridagi zabardast nazm ahli kabi atrofimizdagi jonli jonsiz nabotot olamini chiroyli o‘xshatishlar bilan she‘rlar yozdi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Iqbol Mirzo yuqoridagi mavzulardan tashqari orzu, armon, sog‘inch, iftixor kabi tuyg‘ularni tarannum etuvchi she‘rlar- u bag‘ishlovlar yozdi. O‘z muxlislarini topishiga sabab ham uning mavzu tanlash, sarlavha qo‘yish, tashbehlardan oqilona foydalanishidir. Umuman olganda ko‘ngli toza insonning ixlosi ham, ixlosmandlari ham ko‘p bo‘lishini shu ijodkorimiz misolida ko‘rishimiz mumkin. U hayotda ham ijod mahsullaridagi kabi shaxsligini 2022-yil 7-noyabrda “ Sevimli” telekanalida efirga uzatiladigan “ Eslab – eslab ” ko‘rsatuvidagi suhbatidan⁹ bilib olishingiz mumkin. Shuncha mavzu ko‘lami keng va betakrorligi “ Xalq yozuvchisi ” unvoniga qay darajada munosib ekanligining bir isbotidir.

⁷ O‘sha manba. 313-b.

⁸ I. Mirzo. Sizni kuylayman – Toshkent: Sharq. 2007, 49-b.

⁹ https://youtube.com/watch?v=kW5Voae3xEE&si=_9dqhYTRx9f31icO. ESLAB -SEVIMLI SHOIR IQBOL MIRZO BILAN SHIRIN XOTIRALARNI BIRGA-BIRGA ESLASHAMIZ. - 2022.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И. Мирзо. Бону- Тошкент: Faktor books, 2022. 13-б.
2. И. Мирзо. Айтгил, дўстим, нима қилдик Ватан учун?!. – Тошкент: O‘zbekiston , 2017. 32-б.
3. I. Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2018, 29-b.
4. I. Mirzo. Sizni kuylayman – Toshkent: Sharq. 2007, 49-b.
5. U. Normatov. Ijod sehri.- Toshkent. 2007, 38-b.

Foydalanilgan internet tarmoqlari:

1. https://youtube.com/watch?v=kW5Voae3xEE&si=_9dqhYTRx9f31icOESLAB -SEVIMLI SHOIR IQBOL MIRZO BILAN SHIRIN XOTIRALARNI BIRGA-BIRGA ESLASHAMIZ. -2022.